**“TASDIQLAYMAN”**
**Islom Karimov nomidagi**
**Toshkent davlat texnika universiteti**
**Olmaliq filiali direktori**
**t.f.d., prof. A.U.Samadov**
**________________________**
**“____” ___________ 2025-yil**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali**
**Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan yillik**

## ISH REJASI

| № | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Oliy ta’lim tashkilotida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish. | 1. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlariga hamda “O‘zstandart” agentligi tomonidan o‘rnatilgan tartibda O‘zDSt 3556:2021 ro‘yxatga olingan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti “Asosiy qoidalar” asosida tashkil qilinganligi nazoratga olish.<br>2. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini imkon qadar ko‘proq jalb etish. | 2025-yil avgust-sentabr | Zamon talabiga javob beradigan, kreativ fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan sifatli kadrlar tayyorlanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. “Oliy ta’lim tashkilotlarida xavf-xatarlar tahliliga asoslangan ta’lim sifatini monitoringini joriy etish” bo‘yicha buyrug‘iga binoan, filialda ta’lim sifatini monitoring qilish va baholash tizimini tashkil etish hamda uni doimiy tahlil qilib boorish.<br>4. Filialning ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyati belgilangan malaka talablariga mosligi hamda professor-o‘qituvchilarning tayanch ma’lumotlari va tegishli mutaxassisliklari dars beradigan fanlariga mosligini nazoratga olish. | | |
| 2. | Talabalar bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganib borish va tahlil qilish. | TDTU Olmaliq filialida muntazam ravishda talabalar bilimining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarning fanlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganish. | 2025-yil davomida | Sessiya yakunlarida fakultet va fanlar kesimida o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari monitoringi olib borilib, talabalarning GPA ko‘rsatgichlari past bo‘lishini oldi olinadi. |
| 3. | Ta’lim sifatini ta’minlay oladigan professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatli o‘qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (obyektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish. | 1. Professor-o‘qituvchilikka ishga qabul qilishda ishga qabul qilinadigan talabgor bilan “Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i”, “Talabalar orasida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga ma’sul bo‘lgan direktor maslahatchisi” va “Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini | 2025-yil davomida | Ishga olish jarayonlari va o‘quv yuklamalarini adolatli taqsimlagan holda shaffov mexanizmi tashkil etiladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | boshqarish bo'limi boshlig'i" suhbat o'tkazish.<br>2. Filialning "Ishchi guruh" a'zolari tomonidan ishga olinadigan professor-o'qituvchining fan dasturida berilgan dars mashg'ulotlaridan biri bo'yicha tanlovga qadar sinov ochiq darsini tinglab, tahlil qilish.<br>3. Ishchi guruhning qaroriga binoan ishga olish va o'quv yuklamasini adolatli taqsimlash. | | |
| 4. | Professor-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilib borish. | Professor-o'qituvchilarning dars berishi hamda dars jarayonlarining sifati barcha auditoriyalarda o'rnatilgan vebkameralar hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi va o'quv-uslubiy bo'limi xodimlari tomonidan 100 ballik kriteriya asosida baholanib muntazam ravishda tahlil qilib boorish. | 2025-yil davomida | Professor-o'qituvchilarning dars berish sifati yanada oshadi va professor-o'qituvchilarning o'zlari ustida ishlashi uchun yanada turtki beradi. |
| 5. | Oliy ta'lim tashkilotini ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish. | TDTU Olmaliq filialini ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish | 2025-yil 3-chorak | TDTU Olmaliq filialini ichki baholashdan o'tkazilinib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining kelgusidagi rejasiga muvofiq o'tkaziladigan tashqi baholash asosidagi davlat attestatsiyasi va akkreditasiyasi jarayoniga |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tayyorgarlik koʻriladi. |
| 6. | Oʻquv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida toʻgʻri tashkil etish va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini oʻrganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni oʻz vaqtida va toʻliq hajmda kiritish, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etish) | 1. Oʻquv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida toʻgʻri tashkil etilishini nazoratga olish.<br>2. HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini Ta'lim sifatini nazorat qilish boʻlimi tomonidan muntazam oʻrganib boorish. | 2025-yil davomida | Oʻquv reja asosida oʻqitiladigan har bir fan boʻyicha elektron oʻquv resurslari (fan sillabus, ishchi fan dasturlari, ma'ruza matnlari, amaliy mashgʻulotlar, adabiyotlar) shakllantiriladi va HEMIS tizimiga joylashtiriladi. |
| 7. | Malaka talabalari, oʻquv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos boʻlgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish. | Malaka talabalari, oʻquv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos boʻlgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish va tahlil natijalariga koʻra mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish boʻyicha filial Kengashiga taklif kiritish. | 2025-yil iyul-avgust | Malaka talabalari, oʻquv reja va dasturlarning mehnat bozori talablariga mos boʻlgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yoʻnaltiriladi. |
| 8. | Bitiruvchi talabalarning kadrlar bozoridagi oʻrni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish | 1. Ishlab chiqarish korxonalarining ehtiyojlari oʻrganilib keyingi oʻquv yili uchun kvotalar shakllantirishda korxonalarining ehtiyojlari inobatga olinishini nazorat qilish.<br>2. Bitiruvchilarning bandligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish korxonalarining bosh ish oʻrinlarini oʻrganib chiqish.<br>3. Bitiruvchilarning bandligini ta'minlash maqsadida, viloyatdagi | 2025-yil davomida | Bitiruvchi talabalarning kadrlar bozoridagi oʻrni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yaxshilanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | mavjud ishlab chiqarish korxonalari bilan bitiruvchi talabalar o‘rtasida uchrashuvlar va suhbatlar tashkillashtirish. | | |
| 9. | O‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib borish. | O‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligini hamda dars jarayonlari sifatini nazorat qilish. | 2025-yil davomida | O‘quv jarayonida professor-o‘qituvchilar tomonidan ilg‘or interfaol pedagogik usullar keng qo‘llanilishi oshadi. |
| 10. | Dars o‘tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o‘rganib borish. | Dars o‘tish uchun viloyatdagi mavjud yetakchi ishlab chiqarish korxonalaridan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etish. | 2025-yil davomida | Oliy ta’lim tashkiloti bilan yetakchi ishlab chiqarish korxonalari bilan mavjud aloqalar mustahkamlanadi va qolaversa yangidan yangi ishlab chiqarish korxonalari bilan aloalar o‘rnatiladi. |
| 11. | Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlanganligi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aniqlash. | 1. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rish.<br>2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 2-dekabrdagi 452-son buyrug‘i 2.4-bandida “Yakuniy nazorat turini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Ishchi guruhi hamda yakuniy nazorat ishlarini baholovchi professor-o‘qituvchilar tarkibini tajribali, mas’uliyatli | 2025-yil davomida | Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislik ta’minlanadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | xodimlar tarkibidan shakllantirilishini ta'minlasin" berilgan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida filial direktorining 2024-yil 10-dekabrdagi 01/9-05-281-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash.<br>3. TDTU Olmaliq filialiga talabalikka qabul qilingan talabalarning bahorgi va kuzgi semestr yakuniy nazoratlari to'liq 452-son buyruq ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarida yakuniy nazorat turini tashkil etish va o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari"ga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash. | | |
| 12. | Professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish | 1. Filial o'quv-uslubiy boshqarmasi tomonidan o'quv jarayoniga halaqit qilmagan holda professor-o'qituvchilarning malaka oshirishga yuborish grafigini tuzulganligini o'rganish va nazoratga olish.<br>2. Professor-o'qituvchilar tomonidan o'zlari o'tadigan fanlardagi yangiliklarni dasturlarga va O'UMga kiritilganligini o'rganish va nazoratga olish. | 2025-yil davomida | Professor-o'qituvchilar malaka oshirish kurslarini muvofaqqiyatli tamomlab sertifikatga ega bo'lishadi va shuningdek, o'zlarining mahorati va bilim ko'nikmalarini oshiradilar. Bu esa o'z navbatida dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganlishiga zamin yaratadi. |
| 13. | Professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini | Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasini kafedra mudiri tomonidan adolatli teng taqsimlanishi | 2025-yil 3-chorak | Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi adolatli taqsimlanadi, bu esa o'z |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | tahlil qilish. | va O‘quv-uslubiy boshqarmasi tomonidan to‘g‘ rasmiylashtirilishini nazoratga olish | | navbatida professor-o‘qituvchiga o‘z ustida ishlashiga, ilmiy ish bilan shug‘ullanishga vaqt ajratish imkoniyati mavjud bo‘ladi. |
| 14. | Axborot-resurs markazida talaba va o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo‘yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish. | 1. Axborot-resurs markazida talaba va professor-o‘qituvchilar uchun o‘quv resurslari hamda o‘quv adabirotlar bilan taminganligini o‘rganish va nazoratga olish.<br>2. ARM fondini boyitish maqsadida filial rahbariyati hamda professor–o‘qituvchilar tomonidan chop etib borilayotgan o‘quv adabiyotlarni axborot resurs markazida mavjudligini o‘rganish va nazoratga olish.<br>3. Vazirlik huzurida **Unilibrary.uz** yagona “Elektron kutubxona” platformasi va **EBSCO HOST** elektron ma’lumotlar bazasiga uzulishlarsiz kirishni ta’minlanganligini o‘rganish va nazoratga olish. | 2025-yil davomida | Talabalarning o‘quv resurslariga bo‘lgan ehtiyoji taminlanadi va kerakli malumolarni olish shu bilan bir qatorda bilim salohiyatini oshirib borishi taminlanadi. |
| 15. | Mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnoma yoki uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil | 1. Mustaqil ta’limga oid hujjatlarning o‘quv-uslubiy boshqarmasi, dekanat, kafedralar kesimida mavjudligini va ushbu hujjatlar bo‘yicha ta’lim jarayonlari | 2025-yil davomida | Mustaqil ta’limga tegishli barcha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, talabalarning bilim va salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | etish uchun talablarni qo‘yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash) | to‘g‘ri tashkil qilinganligini o‘rganish va nazoratga olish.<br>2. Professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonlarini yuqori pedagogik texnologiyalar, usullar bilan yanada boyitishini nazoratga olish. | | |
| 16. | Oliy ta’lim tashkilotida plagiatga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta’minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko‘chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish) | 1. Bitiruv malakaviy ishlari va magistirlik dissertatsiyalarini antiplagiat tizimida tekshirish dasturlarini joriy etish.<br>2. Akademik halollik tamoyillarini joriy etish.<br>3. Ko‘chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish | 2025-yil davomida | Filialda ta’lim sifatini oshirish va mehnat bozoriga har tomonlama yetuk mutaxassislarni yetkazib berish takomillashtiriladi. |
| 17. | Chet tili o‘qituvchilarining dars berish darajasini o‘rganish (talabalarning bilim darajasini o‘rganish asosida). | Chet tili o‘qituvchilarining dars berishi darajasi talabalarning bilim darajasini o‘rganish asosida (muloqot, testlar, reyting baholash natijalari, so‘rovnoma) o‘rganish | 2025-yil 2-chorak | Chet tili o‘qituvchilarining dars berish sifati yanada takomillashadi. |
| 18. | Oliy ta’lim tashkiloti moddiy-texnik bazasini o‘rganish (kafedralar kesimida). Bu jarayonda kafedralar tomonidan amalga oshirilayotgan grantlar, shartnomalar asosida moddiy-texnik bazani yaxshilashga qo‘shgan hissasining ulushiga e’tiborni qaratish. | Har bir kafedra kesimida amalga oshirilayotgan grantlar, shartnomalar asosida moddiy-texnik bazani yaxshilashga qo‘shgan hissasi (amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan maxsus o‘quv xonalari va ulardagi jihozlarning mavjudligi, zamonaviyligi, yaroqlilik muddati, zarur moddiy ashyolar bilan | 2025-yil may | Har bir kafedra tomonidan amalga oshirilayotgan grantlar, shartnomalar ulushi oshishiga erishilinadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | ta’minlanganligi va h.k.) o‘rganiladi va o‘rganish natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni filial Kengashiga taqdim etiladi. | | |
| 19. | Bo‘limning 2023/2024-o‘quv yili yakuni bo‘yicha ish rejasining bajarilishi haqida hisobot tayyorlash, uni Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Kengashiga taqdim etish. | Hisobot tayyorlanadi va Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Kengashiga taqdim etiladi. | 2025-yil iyun | |

**Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i:** **t.f.f.d.(PhD), dots. L.E.Yakubov**